O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Materialshunoslik institutining 30 yilligiga bag‘ishlangan
“YANGI MATERIALLAR VA GELIOTEXNOLOGIYALAR”
xalqaro ilmiy konferensiyasining
birinchi ma’lumot xati

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Parkent tumani, “Quyosh” qo‘rg‘oni
15-16 may 2023 yil

Konferensiya materiallari asosida maqolalar to‘plami nashr etiladi.

Tashkilotchilar:
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti hamkorligida

Hurmatli hamkasblar!

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti tomonidan 15-16-may, 2023-yil kunlari Parkent tumanida (O‘zbekiston) bo‘lib o‘tadigan “Yangi materiallar va quyosh texnologiyalari” xalqaro ilmiy konferensiyasi tashkil etilmoqda.

Xalqaro ilmiy konferensiyasida ishtirok etish uchun olimlar, muhandislar va texnologlar, shuningdek ilmiy va ishlab chiqarish faoliyati zamonaviy materialshunoslik bilan bog‘liq bo‘lgan qiziquvchi magistr va talabalar taklif etiladi.

Konferensiya maqsadi yangi materiallar, quyosh texnologiyalari va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish, takomillashtirish, qo‘llash bo‘yicha tahlil qilish, muhokama qilish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Konferensiya dasturi berilgan xossalarga ega bo‘lgan ko‘p funksiyali materiallarni yaratish bilan bog‘liq ilmiy muammolar, ushbu materiallardan mahsulotlar ishlab chiqarishning ilg‘or texnologiyalari, vodorod energiyasi va qayta tiklanuvchan energiya manbalari uchun zamonaviy materiallar va texnologiyalar iborat.

Konferensiyaning tematik bo‘limlari:

1. Qayta tiklanuvchan energiya manbalari. Kam uglerodli texnologiyalar.
2. Kompozit materiallar va qoplamalar. Berilgan xossalarga ega ko‘p funksiyali materiallar.
3. Vodorod energiyasi materiallari va texnologiyalari.

Konferensiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- materialshunoslik va quyosh texnologiyalari rivojining jahon tendensiyalari, amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar darajasi, sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbirlar hamda ularning natijalaridan amaliyotda keng foydalanishni tahlil qilish;
- quyosh energiyasi va kam uglerodli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalarini muhokama qilish;

- vodorod energiyasi uchun materiallar va texnologiyalarni yaratish sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha bilim va tajriba almashish;
- yangi materiallar va quyosh texnologiyalarini yaratish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;
- yangi materiallar va quyosh texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadbir manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Parkent tumani “Quyosh” qo‘rg‘oni. “Katta quyosh qurilmasi” Noyob ilmiy ob’ekti.

UMUMIY MA’LUMOT

Konferensiya tili: o‘zbek, rus, ingliz.

Konferensiyaning ilmiy dasturida ishtirokchilarning ilmiy ma’ruzalari va ish materiallarini nashr etish, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini yetakchi olimlar, hamda konferensiya ishtirokchilari tomonidan baholash ko‘zda tutilgan.

Murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish shartlari

1. Konferensiyada ishtirok etish uchun arizalar va tezislar **“Konferensiya”** belgisi bilan info@imssolar.uz elektron manziliga 2023-yilning 14-apreligacha yuborilishi kerak.
2. Murojaatlarni ko‘rib chiqish davri: 5 ish kuni.
3. E’lon qilingan ishtirokchilarga taklifnomalar 2023-yilning 1-mayigacha yuboriladi.

Konferentsiyaga taqdim etiladigan materiallarga qo‘yiladigan talablar

1. Konferensiyaning tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha alohida yoki hammualliflikda yozilgan ilmiy ma’ruzalar va maqolalarni qabul qilinadi.
2. Chop etilgan materiallar hajmi 2 varoqdan oshmasligi kerak (Shrift: Times New Roman, 14 pt), rasm va jadvallarni hisobga olgan holda, qatorlar oralig‘i 1.2).
3. Har bir talabgor Konferensiyaga har bir bo‘lim yoki yo‘nalish bo‘yicha bittadan ko‘p bo'lmagan maqola taqdim etishi mumkin.
4. Tashkiliy qo‘mitaga taqdim etiladigan hujjatlar to‘plami quyidagilardan iborat:
   - 1-ilovaga muvofiq to‘ldirilgan ariza;
   - ilmiy ma’ruza matni 2-ilovaga muvofiq elektron shaklda;
   - konferensiyada ishtirok etish uchun taqdim etilgan ilmiy ish tavsiyasi bo‘yicha Ilmiy kengash bayonnomasidan ko’chirma (mahalliy ishtirokchilar uchun).

Agar ishtirokchining tashkilotida Ilmiy kengash mavjud bo‘lmasa, tezislar tashkiliy qo‘mitaga ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi.

5. Tashkiliy qo‘mita huzurida taqdim etilgan ma’ruzalarni xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda ko‘rib chiqish uchun, konferensiyaning xalqaro ekspertlar kengashi tuziladi.
6. Konferensiyada o‘zbek, rus va ingliz tillarida yozilgan ma’ruzalar ishtirok etishi mumkin.

7. Tashkiliy qo‘mita konferensiyada ishtirok etish uchun qo‘yiladigan talablarga javob bermaydigan ilmiy ma’ruza va maqolalarni qabul qilmaslikka haqli, ular to‘g‘risida talabgorga material taqdim etilgan kundan boshlab, besh kun ichida xabar qilinadi.

Konferensiya materiallari to‘plami chop etilishi va Materialshunoslik institutining www.imssolar.uz veb-saytiga joylashtirilishini ma’lum qilamiz. Shuningdek, konferensiya davomida ekspert komissiyasi tomonidan tanlab olingan 8-10 ta eng yaxshi maqolaning kengaytirilgan varianti “Computational nanotechnology” ilmiy jurnali (www.urvak.ru) talablariga muvofiq chop etish uchun tavsiya etiladi. Nashr etilgan maqolalarga DOIlar beriladi.

Konferensiya to‘lovlari

Xorijiy ishtirokchilar uchun tashkiliy to‘lov 200 AQSh dollari, mahalliy ishtirokchilar uchun 300 000 so‘mni tashkil etadi.

Ushbu to‘lovga yo‘l xarajatlari (Toshkent-Parkent-Toshkent), tushlik, konferensiya materiallarini chop etishlar kiradi.

Taklif etilgan xorijiy ishtirokchilarga O‘zbekiston bo‘ylab yo‘l va mehmonxona (4 kun va 3 tun) xarajatlari tashkiliy qo‘mita tomonidan qoplanadi.

1-ilova

Arizalarni to‘ldirish namunasi

Konferentsiyada ishtirok etish uchun ariza

(har bir ishtirokchi tomonidan to‘ldiriladi)

1. To‘liq ismi sharifi, I.F.O. (to‘liq):
2. Ish joyi:
3. Lavozimi, Ilmiy darajasi, Ilmiy unvoni:
4. Telefon (uyali, ish):
5. Elektron manzili (E-mail):
6. Ma’ruza mavzusi:
7. Bo‘lim nomi:
8. Ishtirok etish shakli (ma’ruza bilan yoki ma’ruzasiz jonli ishtirok etish, ma’ruza bilan yoki ma’ruzasiz onlayn ishtirok etish):

2-ilova
Chop etish uchun taqdim etiladigan ishlarni tayyorlash qoidalari

SARLAVHA (TIMES NEW ROMAN, 14 PT)

Birinchi muallif[a], Ikkinchi muallif[b], Uchinchi muallif[b]

[a]*Institut, Toshkent, O‘zbekistan*
[b]*Institute, Grenoble, France*

author@mail.com

Tezis **ingliz, rus yoki o‘zbek tillarida A4 formatda** ikki betda yozilishi hamda qisqa va aniq bayonni o‘z ichiga olishi kerak. Barcha qisqartmalar matnda ko‘rsatilishi zarur.

Ushbu misol tezis uchun zarur bo‘lgan maketni ko‘rsatadi. Matn **Times New Roman shriftida (14 pt),** matn maydoni varaqning xamma tomonidan 2.5 sm, qatorlar oralig’i **1.2 interval**.

Sarlavha, mualliflar, ish joyi va manzillari markazdan yozilishi kerak.

Sarlavha bosh harflarda quyuqlashtirilgan holda yoziladi. 1 intervaldan so‘ng mualliflarning familiyasi, ismi va shariflari keltiriladi. Muallif-ma’ruzachining nomi osti chiziladi. Bir intervaldan so‘ng kursivda tashkilot nomi, yana bir intervaldan keyin muallif-ma’ruzachining elektron pochta manzili ko‘rsatiladi. Tashkilot nomi quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak - muassasa, shahar, mamlakat. 1 intervaldan keyin tezis matni yoziladi.

Rasmlar sahifaning umumiy maydonida bo‘lishi kerak.

Havolalarni [1] tezis oxirida **Times New Roman (12 pt)** shriftidan foydalangan holda ko‘rsating. Matn va havolalar orasida bir interval joy qoldiring.

Tashakkurnomani tezis matnining oxiriga, havolalardan keyin **Times New Roman (12 pt)** shriftidan foydalangan holda qo‘shish mumkin.

[1] A. First, B. Second and C. Third, Abbreviated Journal Name, **2013**, 12, 345-350.

Acknowledgements: We are grateful to the Foundation for Basic Research for financial support.